

Nafosat bayrami

☒ Institutimizning 3-Talabalar turar joyida 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talaba yigitlarimiz tomonidan qizg'in tashkillashtirildi va qiziqarli o'yinlar tarzida havola etildi.

Inisstitutimiz talabalarining "Shunchaki" jamoasi qiziqarli chiqishlari bilan talaba qizlarimiz qalbiga quvonch, yuzlariga tabassum ulashdi. Tadbir davomida talaba yigitlarimizdan O'Imasjon Nazarov "Ayol - jamiyatning gultoji, u millat davomchisi, hayotimiz, xonadonimizni ezgulik, yaxshilik, mehr-muhabbat, iffat-u nafosat nuri ila munavvar qiladigan muqaddas zotdir" - deya o'zining «Onajonim» she'rini ijro etib ularga baxsh etdi.

Bilmadim ne bo'ldi ahvoli,
Sog'insam ham chidab yuribman.
Tashvishlar o'rab to'rt tomonim,
Onamni eslamay qo'yibman.
Vaqt o'tar oradan bilinmay,
Eslashga bir bora urinmay.
Bir kunda bir bora ko'rinmay,
Onamni eslamay qo'yibman.
Ne bo'ldi menga ayt, shoirim,
Go'zallar oldimi xayolim,
Onamni eslamay qo'yibman.
Ko'zlari sog'inchdan mo'lтирар,
Men bo'lsa bilmasdan yuribman,
Mushtipar uyda jim o'lтирар,
Onamni eslamay qo'yibman.
Uyqu ham kelmaydi ko'zимга,
Uyatdan qarolmay yuzимга,
Onamni eslamay qo'yibman.

Tadbir so'ngida 3-Talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talaba qizlarga sovg'alar tarqatishdi. Savol va javoblar yo'sinida o'tkazilgan

tadbir ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi.



Ushbu tadbirni tashkillashtirgan pedagog tarbiyachi Aziza Xayitova Inistitut Boshlag'ich Tashkiloti Yoshlar Ittifoqiga samimiy minnatdorchilik bildirildi.

**"Iqtisodiyot va menejment" fakulteti talabalari kengashi
sardori**

Jahongir Saidahmedov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.